



**QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ JASLAR SIYASATÍ HÁM SPORT MINISTRILIGI  
BUYRÍGÍ**

29«iyul»2023 jil.

617-A/F-san

Nókis qalası

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil  
21-iyundagi 01/821-A/F-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyundagi “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-252-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 20-sentyabrdagi PF-5834-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1999-yil 29-martdagi 140-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 01/821-A/F-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligida arxiv ishini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 01/821-A/F-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 01/821-A/F-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 01/821-A/F-sonli buyrug‘i bilan:

a) O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligida ish yuritish va hujjatlarni ijrosini nazorat qilishni tashkil etish to‘g‘risidagi Yo‘riqnama 1-ilovaga muvofiq;

b) O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining yig‘ma jildlar nomenklaturasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Vazirligining arxiv ishini yuritishga mas‘ul xodim (B.Tolibayev)ga vazirligining arxiv hujjatlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Arxiv ekspert tekshiruv uslubiy komissiyasida ro‘yxatdan o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho‘basi (A.Toremuratov) arxiv ishini yuritishga mas‘ul xodim B.Tolibayevni “O‘zarxiv” agentligi huzuridagi Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish markazida malakasini oshirish chorasini ko‘rsin.

5. Respublikadagi barcha sport maktablari mazkur buyruqdan kelib chiqib ichki hujjatlarini ishlab chiqib, mahalliy arxiv ekspert tekshiruv uslubiy komissiyasida ro'yxatdan o'tkazish vazifasi yuklatilsin.

6. Axborot-tahlil va ijro intizomi sho'basi (B.Tolibayev)ga:

a) ushbu buyruq bilan vazirligining sho'ba boshliqlari va mutaxassislarini tanishtirish;

b) mazkur buyruq nusxasini vazirligining tizimidagi barcha sport ta'lim muassasalariga yuborish vazifalari yuklatilsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

**Vazir**



**A. Allanazarov**